

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.M.Bozorova</b>	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
<b>L.S.Sultonova</b>	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
<b>U.K.Kurbanova</b>	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili .....	124
<b>M.H.Mo'minova</b>	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni .....	128
<b>K.J.Ochilova</b>	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili .....	132
<b>B.X.Karimov</b>	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
<b>R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova</b>	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim .....	141
<b>P.X.Qaxorov</b>	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi .....	147
<b>U.M.Paxriddinov</b>	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	152
<b>Z.B.G'ulomov</b>	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
<b>A.A.Tojiddinov</b>	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari .....	164
<b>G.A.Qamariddinova</b>	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili .....	172
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
<b>Z.I.Narziyev</b>	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba .....	185
<b>M.M.Mamasaliyev</b>	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

## SIYOSAT

<b>T.A.Azizov</b>	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari .....	193
<b>S.U.Yuldashev</b>	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionalallashtirish .....	197
<b>O'.N.Ahmedova</b>	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi .....	201
<b>X.R.Ikramov</b>	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati .....	205
<b>A.M.Abjalov</b>	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	210
<b>G.B.Umarova, A.Nurullaeva</b>	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi .....	214
<b>S.S.Yakubov</b>	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi .....	218



UO'K: 1(091) + 2(091)

## SAYYID SHARIF JURJONIYNING ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK QARASHLARI

## ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭПИСТЕОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ САИДА ШАРИФА ДЖУРДЖАНИ

## ONTOLOGICAL AND EPISTEOLOGICAL VIEWS OF SAYID SHARIF JURJANI

Bozorova Gulmira Mahmudovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

## Annotation

Ushbu maqolada Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari haqidagi tasavvurlar o'rganilib, falsafiy nuqtayi-nazardan asoslab berilgan. Olam tushunchasi, eng avvalo, olam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettirishi asoslangan. Borliq haqidagi falsafiy qarashlar chuqur tahlil qilinib, Jurjoniyning borliq va gnoseologiya haqidagi g'oyalari ilmiy jihatdan ochib berilib tahlil etilgan

## Abstract

This article studies the ontological and epistemological views of Sayyid Sharif Jurjani and substantiates them from a philosophical point of view. The concept of the world is based, first of all, on the reflection of the universe and the space in which its activities take place. Philosophical views on being are deeply analyzed, and Jurjani's ideas on being and epistemology are scientifically revealed and analyzed.

## Annotation

В статье рассматриваются онтологические и эпистемологические взгляды Сайды Шарифа Джурджани и обосновываются они с философской точки зрения. Понятие вселенной основано, прежде всего, на размышлении о вселенной и пространстве, в котором происходит ее деятельность. Глубоко анализируются философские взгляды на существование, научно раскрываются и анализируются идеи Джурджани о существовании и эпистемологии.

**Ключевые слова:** Jurjoni, being, ontological, epistemological, non-existence, universe, nature, society, idea.

**Ключевые слова:** Журжоний, бытие, онтологическое, гносеологическое, небытие, вселенная, природа, общество, идея.

## KIRISH

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon "borliq" va "yo'qlik" haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelish sabablari, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'rindi, shunday bo'lsada unga shu choqqacha hammani birday qanoatlantiradigan javob topilganicha yo'q. Bunday holat borliqqa turlicha nuqtayi nazarlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalalar, o'y-xayollarimiz bularning barchasi birday mavjuddir, ular turli xil ko'rinishlarda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Falsafaning borliq haqidagi ta'lilotni izohlaydigan qismi - ontologiya deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Volf qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi. Yo'qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasasi ham yo'qlikdir. [1]

Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qliknin hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q. Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam tushunchasi, eng avvalo, olam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo'limganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'imas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hech

## FALSAFA

narsasi yo'q olam yo'qlikdir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstrakstiyadir. Olam asosida yotuvchi to'rt unsurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda, olam to'g'risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo'lgan. [14]

Falsaфа tarixida borliq muammosi insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafiy adabiyotlarida uchraydi. Xususan, "Veda"lar (Qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va ularga diniy-falsafiy sharhlar – "Upanishada"larda yaxlit ma'naviy substansiya, o'limas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek, dunyo haqidagi materialistik va ateistik tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslар – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. [3]

Borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiyl, universal va betakror mavjudlik qobiliyat, deb tavsiflash mumkin.

Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – "Rigveda"larda aks etirganlar. Qadimgi Xitoy falsafasi, avvalo, ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal organi bois, unda inson borlig'iga, shuningdek, ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. [13]

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Ayni vaqtida, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan narsalar va hodisalarning butun rangbarangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq "O'zgarishlar kitobi"da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qay etiladi. Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks etirgan kosmogonik miflar Suqratga qadar, avvalo, tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda "Tabiat haqida" deb nomlaganlari, ularning o'zlar esa naturalistlar, "fiziklar" deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi. Sharq donishmandlari kabi, antik mutafakkirlarni ham borliqning manbalari qiziqtirgan.[2]

Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimen) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos – "apeyron" (Anaksimandr taxminan miloddan avvalgi 611-545-yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580-490-yillar) ham ilgari suradi. [13]

U hamma narsa er va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto "biz ham er va suvdan paydo bo'lgamiz", deb hisoblaydi. O'sha davrning bosh falsafiy masalasi – "hamma narsa nima", degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580-500 yillar) "hamma narsa sondir", degan xulosaga keladi. U Yerning sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi. Keyinchalik bu g'oyani Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) qo'llab-quvvatladi va unga yozma ta'rif beradi. Parmenid faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsifladi va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirdi. U haqiqiy borliq mohiyatining o'zgarmasligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. [4]

Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardo'shtiylik ta'limotining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" da borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangananib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb ta'kidlanadi. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Islom ta'limotida esa borliq Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari shakllangan. Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliv Ollohning o'zidir. Beruniy fikricha, Ollohdan boshlanguvchi borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir.

Sharqda yashab o'tgan faylasuflar ham borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Har bir davrning buyuk donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rtaga tashlaganlar. Insoniyat azal-azaldan olam va odam nima, ular qanday

## FALSAFA

paydo bo'lgan, vogelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlaydi.

Amir Temur tomonidan Sheroz fath etilishi munosabati bilan 1387-yilda u erdag'i yirik olimlar qatorida Samarcandga kelganlar orasida mashhur faylasuf va mantiqshunoslardan Ali ibn Muhammad Mir Sayyid Sharif Jurjoni ham bor edi. Ilmiy adabiyotlarga Mir Sayyid Sharif nomi bilan kirgan Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayniy Jurjoni 1339 yilda Eronning Gurgon viloyati markazi bo'lgan Astrobod shahri yaqinidagi Tog'u qishlogida tug'ildi.

Jurjoni Samarcandning mashhur madrasalarida falsafa, mantiq, falakiyot, fiqh, til va adabiyot, munozara ilmi va boshqa fanlardan dars berib, o'zidan yaxshi nom qoldirdi. Uning shogirdlari orasida Qozizoda Rumiy, Ulug'bek va boshqalar bor edi. Jurjoni asarlarining umumiy soni 50 dan oshiqdir. Bular ichida falsafa, mantiq va tabiatshunoslikka doir asarlar salmoqli o'rinni egallaydi, o'z navbatida, bu sohadagi asarlari butun Sharq mamlakatlariga keng yoyilgandir. [5]

Jurjoniyning falsafiy qarashlari Forobiy, "Sof birodarlar" anjumani, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniylar dunyoqarashi ta'siri ostida shakllandi. Ular kabi Jurjoni ham obyektiv borliqning mavjudligiga shubha qilmas edi, ammo uning kelib chiqishini aqliy yo'sinda talqin qilib, emanatsiya nazariyasi nuqtayi nazarida turar edi. Jurjoniyning bizgacha "Borliq haqida risola" va "Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu" deb nomlangan falsafiy asarlari qo'lyozma holida etib kelgan. Jurjoni o'zining "Risola fi tahqiqe vujud" ("Borliqni tekshirish risolasi") asarida yozadiki, borliqning haqiqiyligi o'z mohiyatiga ko'ra mavjuddir va uning yo'q bo'lishining o'zi mumkin emas. [6]

Jurjoniyning dunyoqarashi, undan oldin o'tgan salaflarini idek, o'rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi, borliq haqidagi ta'limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash haqidagi ta'limot, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoni aqidasiga xos bo'lgan narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Bes bobdan iborat bo'lgan o'zining "Oyinaye gitinamo" ("Dunyoni aks eltinivchi ko'zgu") risolasining birinchi bobini vojib ul-vujudva mumkin ul-vujudni mavjud ekanligini asoslashga bag'ishlaydi. Jurjoniunga shunday ta'rif beradi: "Yo'q bo'lishi mumkin bo'Imagan, bor bo'lishi esa zarur bo'lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, Xoliqning o'zligi kabi tushuncha. Borligi ham, yo'qligi ham zarur bo'Imagan narsa mumkin ul-vujud deb ataladi". [10]

Jurjoni fikricha, vojib ul-vujud Xudo bo'lib, mumkin ul-vujud esa moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya'ni Xudoning borligini tan oladi. Uning fikricha, mumkin ul-vujud o'zining bor bo'lishi uchun qandaydir tarzda bo'lsa ham, biror bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror bir narsa tufayli, ya'ni birinchi sabab mohiyatiga ko'ra, mumkin ul-vujud darajasiga ko'tariladi. [5]

Jurjoni tabiatdagi hech bir narsa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y beradi. Jurjoni dunyoqarashiga xos xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta'riffashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur, ya'ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unsurning bir-biri bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. [11]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, taqqoslash va solishtirish usullaridan keng foydalilanigan. Jurjoniyning borliq haqidagi g'oyalarini kengroq yoritishga imkon bergen. Jurjoniyning ontologik qarashlari uning asarlari misolida tahlil qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jurjoni falsafasida moddiylik g'oyalarigina emas, balki dialektik dunyoqarash mavjud. Uning fikricha, moddiylikdan holi bo'lgan bo'sh joy yo'q. Bu haqda u shunday yozadi: Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo'lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo'shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo'lgan tushuncha yoki biror o'lchov bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o'zaro yopishib, ayni vaqtida boshqa jism bilan ham bog'lanib turgan narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas. Har atrofdagi dunyo, o'zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo'shliqning

bo'lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo'lakchalarning tarkibiy majmuasi olam deb ataladi. [9]

Jurjoni fikricha, hamma jismlar bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatda sabab-oqibat nisbatida bo'ladilar. "Dunyonи aks ettiruvchi ko'zgu" risolasida u shunday yozadi: "Bor bo'lishga imkonи bor narsa ikki tarkibiy qismidan javhar (substansiya) va faz (aksidensiya)dan, ya'ni tub mohiyat va tasodify holdan yoki hodisadan tashkil topadi. Agar mavjud bo'lishga imkonи bo'lgan narsa o'z mavjudligi uchun joyga ehtiyoj sezmasa, unda uni tub mohiyat deb, agarda unga ehtiyoj sezsa, hodisa deb ataladi. Tub mohiyat besh xil bo'lishi mumkin. Agarda biror-bir tub mohiyat, boshqa joyda birorta narsa ozida qaror topgan bo'lsa, u joylashgan o'sha joy narsa deb, holat esa shakl deb ataladi. Agar u o'z ichiga holat va joyni olgan bo'lsa, u jism deb nomlanadi.

Agar tub mohiyat bu aytilgan uch narsani o'z ichiga olmasa, u ayiruvchi javhar deb ataladi. Agarda shu ayiruvchi tub mohiyat jismga ega bo'lsa, u holda uning o'zgaruvchi qismi ruh deb ataladi. Bu jismlardagi o'zgarmaydigan narsa aql deb ataladi. Agarda ushbu aql bevosita vojib ul-vujuddan kelib chiqqan bo'lsa, u boshlang'ich ong yoki umumiy aql, deb ataladi". [6]

Jurjoni javharni (substansiya) besh turga bo'ladi: aql, ruh, birlamchi javhar, shakl va jism, javharlar vositasida narsalar sifatida qarab chiqadi. Jurjoni tabiiy borliqni tasnif qilib, jismlarni oddiy va murakkabga bo'ladi.

Murakkab jismlar to'rt unsurdan tashkil topadilar, oddiy jismlar yuqori va quyida joylashgan bo'ladilar - sayyoralar va unsurlarning o'zları. Yuqoridagi jismlar nurli va nursiz bo'lishlari mumkin, birinchilari sayyoralar va yulduzlar mohiyati bo'lsa, ikkinchilari doiralar va rulilardir. Murakkab jismlar o'zlariga quyidagilarni qamrab oladilar: o'smaydigan narsalar - minerallar, o'sadigan, ammo histuyg'uga ega bo'lib, harakat ham qiladigan, biroq nutqdan mahrum - hayvonlar, nutqqa ega bo'lganlar - odamlar. Demak, Jurjoni aqidasischa, butun dunyo yagona jism bo'lib, uning turli a'zolari qonuniy ravishda bir-birlari bilan bog'langandirlar. Jurjoni o'z tabiat falsafasida tabiiy dunyo, ya'ni tabiatni, uning o'zidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildi. U inson bilan tabiatning yagonaligini katta olamdag'i (makrokosm) barcha kuchlarning oliy to'planish markazi sifatida bo'lgan kichik olam (mikrokosm) g'oyasi orqali ifodaladi. [6]

## XULOSA

Yurtimizdagи falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlarining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan sharq mutafakkirlari orasida temuriylar davrida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. U shuningdek Ulug'bek Akademiyasining vujudga kelishidagi xizmatlari kattadir. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to'la o'rganish mustaqil Respublikamiz ma'naviyatiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir. Zero yurtboshimiz aytganlaridek, buyuk ajoddolarimizga xos azm-u shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish eng dolzarb vazifamizdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2024. 24 b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
4. Karimov I.A. Asarlар to'plами. 1-24 jiddlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. 2 nashr –T.: Ma'naviyat, 2016 176-b.
6. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
7. Sherduxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
8. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: "Sharq", 2005 y.
9. Jurjoni. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag'miniy. O'z RFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo'lyozma, 225-a bet (arab tilida).
10. O'z FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasi. "Oynayegitimamo" 2984-raqamli qo'lyozma, 1-sahifa (fors tilida) 2 a-b.
11. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: "Sharq", 2005 й. 431-b.
12. Ma'naviyat Yulduzlar / F.Hasanov- T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. 184-185 betlar.
13. Falsafa o'quv-uslubiy majmua. Toshkent Moliya institute. T: 2019. 55-60 betlar.
14. Falsafa. Saloxov A.Q. Buxoro 2021. Buxoro muhandislik-texnologiya institute. 21-24 betlar.